



**SUPPORT
SCIENCE**

BUILDERS OF THE FUTURE

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>



THE REFLECTION OF “FIXED SIMILE EXPRESSIONS” IN PERSIAN LITERARY WORKS IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Azamat Bektemirov

2nd-year Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: azamat.bektemirov.18.97@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

D. Ahmedova

Doctor of Philological

Associate Professor at the "School of Iranian and Afghan Studies"

Tashkent State University of Oriental Studies (TSUOS)

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Simile, imagery, description, positive and negative similes, object of comparison, image.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article compares examples of similes in Uzbek and Persian languages. Similes are analyzed and discussed through examples. The purpose of this article is to examine similes in Persian literary works and their Uzbek translations, to identify the strengths and weaknesses of the translations, and to study the translator's skill.

FORS TILIDAGI BADIY ASARLARDA “TURG‘UN O‘XSHATISHLI BIRIKMALAR”NING FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA AKS ETISHI

Azamat Bektemirov

2-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

QTLT mutaxassisligi

E-mail: azamat.bektemirov.18.97@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

D. Ahmedova

Filologiya fanlari doktori

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti

TDSHU

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: oʻxshatish, obrazlilik, tasvirlash, ijobiy va salbiy oʻxshatishlar, oʻxshatiluvchi obyekt, obraz.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oʻxshatishlarning oʻzbek va fors tillaridagi namunalari oʻzaro qiyoslandi. Oʻxshatishlar misollar orqali tahlil qilinib, koʻrib chiqildi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad oʻxshatishlarning fors adabiyoti namunalari va ularning oʻzbek tilidagi tarjimalarini tahlil qilish, tarjimadagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash, tarjimon mahoratini oʻrganishdir.

ОТРАЖЕНИЕ “УСТОЙЧИВЫХ СРАВНИТЕЛЬНЫХ ВЫРАЖЕНИЙ” В ПЕРСИДСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НА ПЕРСИДСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Азамат Бектемиров

Магистратура, 2-й курс

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: azamat.bektemirov.18.97@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Д. Ахмедова

доктор филологических наук

доцент кафедры «Иранистики и афганистики»

Ташкентского государственного университета востоковедения (ТГУВ)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Сравнение, образность, описание, положительные и отрицательные сравнения, объект сравнения, образ.	В данной статье сравниваются примеры сравнений в узбекском и персидском языках. Сравнения анализируются и рассматриваются на примерах. Цель статьи — проанализировать сравнения в произведениях персидской литературы и их переводы на узбекский язык, выявить достоинства и недостатки перевода, а также изучить мастерство переводчика.

Badiiy adabiyot tilidagi tasviriy vositalar – oʻxshatish, sifatlash, metafora, antiteza va boshqalar adabiyotshunoslikning ham, tilshunoslikning ham oʻrganish obyekti. Adabiyotshunoslikda tasviriy vositalarning badiiylilik, obrazlilikda tutgan roli oʻrganilsa, tilshunoslikda material sifatida qanday leksik va grammatik vositalar bilan ifodalanishi, ayniqsa, muhimdir.

Badiiy adabiyot tilidagi oʻxshatishlar qoʻllanish jihatdan ikki katta guruhga boʻlinadi:

1. Anʼanaviy oʻxshatishlar;
2. Individual oʻxshatishlar.

Anʼanaviy oʻxshatishlar xalqning jonli-soʻzlashuv nutqidagi oʻxshatishlar boʻlib, ular yozuvchi tomonidan oʻzgartirilmagani holda badiiy asar tiliga olib kiriladi. Ularda taʼsirchanlik, konkretlik xususiyatlari yaqqol gavdalanmaydi.

Masalan bularga, o'qday yoki elday yugur, chayonday zaxar, xo'rozday urishqoq, mushukday yoki qo'yday yuvosh, to'ngakday yoki ayiqday qo'pol kabi o'xshatishlarni ko'rsatish mumkin. Chunki bu narsalarning zaxarlik, yuvoshlik, qo'pollik kabi belgilari odamlarga avvaldan ma'lum bo'lib, jonli-so'zlashuv nutqida doimo qo'llanilib turadi. Bunday o'xshatishlar kundalik nutqda ishlatilaverishi orqali o'zining obrazlilik va emosional-ekspressivlik xususiyatlarini yo'qotgan. Shuning uchun ham bunday o'xshatishlar badiiy asar tilida, ko'pincha, personajlar va dialog nutqlari orqali beriladi, bu bilan so'zlashuv nutqining belgisini aniqlashga erishiladi.

A.F.Efremov badiiy asar tilidagi o'xshatishlarni o'rganishga oid maqolasida badiiy asar tilidagi o'xshatishlarni o'rganishga oid maqolasida shu narsaga e'tibor berib, rus tilining jonli-so'zlashuv nutqida qo'llaniladigan "работал как зверь" kabi o'xshatishlarni "stereotip o'xshatish" termini bilan nomlagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Individual o'xshatishlar yozuvchining xalq tilidan mohirona foydalanishi orqali qo'llagan o'xshatishlaridir. Ularda emosional-ekspressivlik, obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi. Badiiy asar tilida bunday o'xshatishlar, ko'pincha, avtor nutqi orqali beriladi va o'zining originalligi, konkretligi hamda kitobxon hayolida yo'qligi bilan ajralib turadi.

Masalan, Abdulla Qahhor (Sarob) romanida o'z nutqi orqali mana shunday o'xshatish qo'llaydi:

Yo'g'on kishi chalqancha yiqildi va so'yilgan tovuqday pitirlab, suyak tiqilgan itday xirillay boshladi kabi.

Endi bu misolni forsha tarjimasiga e'tibor qarataylik:

مرد چاق به پشت افتاد و مانند مرغ سربریده به تپیدن افتاد و مانند سگی که استخوان در گلویش گیر کرده باشد، خرخر می‌کرد.

Bu individual o'xshatish personajlarning holatini tasvirlashda o'zining originalligi, konkretligi bilan emosionallik o'zaro bog'langan, aniq obrazda kuchli emosiya bo'ladi.

O'xshatishlar bir tomondan, ko'pincha, obrazni gavdalandirsa, ikkinchi tomondan, emosional tuyg'ularga ta'sir qiladi.

Individual o'xshatishlar yozuvchi tomonidan hayotiy haqiqatlarni sinchiqlab tekshirishlari orqali ro'yobga chiqadi hamda tasvirlanayotgan obyektning nursiz, qorong'u, mavhum tomonlari kitobxon hayolida reallashadi, tiniqlashadi.

Masalan, A. Qahhor "Sinchalak" povestida Eshon portretini chizishda uning yuz tuzilishiga e'tibor berib, uning yuzini – so'rib tashlangan husayni uzumga (چهره او مانند حبه انگوری که تمام آبش را) (".مکیده باشند").

A. Muxtor “Opa-singillar” romanida din peshvosini ta’riflab, uning yuzini g’ijimlangan qog’ozga, Shuhrat “Oltin zanglamas” romanida bosmachi Dilovarxo‘janing yuzini – ro‘paradan o‘q yegan kishiga o‘xshatadi. Forschasi esa quyidagicha tarjima qilinadi:

”چهرهٔ بسماچی دیوارخوچه مانند کسی بود که گلوله از رویرو به او اصابت کرده باشد“

Bunday qiyoslashlar so‘zlashuv nutqida qo‘llanmasligi hamda o‘zining obrazlilik, konkretligi bilan badiiy asar tilida ajralib turadi.

Adabiy tilda qo‘llangan o‘xshatishlar ijobiy va salbiy ma’nolari bilan ham farqlanadi. Ijobiy ma’noli o‘xshatishlar badiiy asardagi ijobiy qahramonlar portreti, xarakterida beriladi. Ularning muhim bir belgi, xususiyati oy, quyosh, mevali daraxtlar va boshqa narsa, hodisalarning ijobiy belgi, xususiyatiga qiyoslanadi.

Salbiy personajlar esa hayotdagi zararli, yoqimsiz narsalarga o‘xshatiladi. Masalan, ular ko‘pincha chayon, kaltakesak, kalamush, pashsha va boshqa zararli narsalarga qiyoslanadi. Bu bilan yozuvchi salbiy personajlarga bo‘lgan o‘zining salbiy emosiyasini, antipatiyasini bildiradi hamda kitobxonning shu personajga nisbatan nafrat tuyg‘usini qo‘zg‘otadi.

O‘xshatishlarning ijobiy, salbiy ma’no anglatishida ularning qiyoslanish obyektlari muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, zuluk so‘zini olib ko‘raylik: agar zulukning tashqi belgi, xususiyati qiyoslansa ijobiy ma’noli o‘xshatish yuzaga keladi: zulukday ot “اسبی مانند زالو”, zulukday qiz “دختری مانند زالو”, zulukday mashina “ماشینی مانند زالو” kabi. Lekin zulukning qon so‘rishlik belgi, xususiyati qiyoslanganda o‘xshatishdan salbiy ma’no anglashiladi. Demak, o‘xshatishlar badiiy asar tilida saralanib qo‘llanadi .

Ijobiy qahramonlarga berilgan o‘xshatishlar salbiy personajlarga, salbiy personajlarga qo‘llangan o‘xshatishlar ijobiy qahramonlarga nisbatan ishlatilmaydi. Ya’ni L.N.Tolstoy aytganidek, o‘xshatish tasvirda tabiiy va haqiqiy vositalardan biri bo‘lib, u juda aniq va oqilona bo‘lishini talab qiladi. Aks holda o‘xshatish butunlay qarama-qarshi harakat qilishi mumkin.

Adabiy tildagi o‘xshatishlar mazmuniga qarab inkor, kinoya, satiric va chog‘ishtiruvchi bo‘ladi.

Inkor o‘xshatishlarida o‘xshatiluvchi obyektga o‘xshovchi obrazni qarama-qarshi qo‘yish yo‘li bilan qiyoslanadi. Bular inkor ma’nosini anglatuvchi emas, yo‘q so‘zlari qatnashadi:

Ko‘chalarda odam ko‘p, huddi Yaypanning bozor kuniga yo‘q hayitga o‘xshaydi (A. Qahhor)

”!خیابانها مردم زیادند، درست مثل روز بازار یایپان... نه، بلکه مانند عید

Pishqirib ilonday to‘lg‘anib oqayotgan bu suv, suv emas, bir balo edi (A. Qahhor)

این آبی که همچون مار پیچیده و با صدای سوتمانندی جریان داشت، آب نبود، بلکه یک بلا بود“

Kinoyali o‘xshatishlarda o‘xshatiluvchi obyekt to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshovchi obraz bilan qiyoslanmaydi. Oldin o‘xshatiluvchi obyektning xususiyatlari tasvirlanadi, keyin esa o‘xshovchi obraz beriladi. Bu o‘xshovchi obrazda mubolag‘a ustun turadi: Qani, biror xolis odam bo‘lsa aytsin:

butun O‘zbekistonni qidirganda Nurmatjonga o‘xshagan yigitdan yana bironta topilarmikin? Bo‘lgan taqdirda ham yoshligida oynaga qarab Nurmatjonday, “men qanaqa xotin olar ekanman” degan emasdir.

“اگر فردی بی‌طرف پیدا شود، بگوید: آیا در تمام ازبکستان می‌توان جوانی مانند نورماتجان یافت؟ حتی اگر چنین باشد، او در جوانی مقابل آینه نایستاده و نگفته: نورماتجان! من چه همسری خواهم داشت؟”

Hammadan uning qomatini ayting? Afsuski ming afsuski qo‘li ikkitada, yo‘qsa eng chiroyli nasha chilimga o‘xshar edi (A. Qahhor).

از همه مهم‌تر، هیکل او را بگویید! افسوس، هزار افسوس که فقط دو دست دارد، وگرنه مانند یک چپق زیبای نیشکر می‌شد) “عبدالله قهار)

Bu kinoyali o‘xshatish bilan A. Qahhor o‘tmish sarqiti qobig‘ida o‘ralashib qolgan Nurmatjonday shaxs ustidan kuladi, ularni kinoya tig‘i ostiga oladi.

Satirik o‘xshatishlarda ham kinoyali o‘xshatishlardagidek mubolag‘a, fantaziya ustun turadi. Satirik o‘xshatishlarda biror salbiy obrazning portreti, xulq-atvori hajvga olinadi:...

Kanizakning ko‘ziga mana shu oq avra to‘n, yaltiroq kalla, jun arqonga o‘xshagan qosh, to‘rvaday soqol, po‘stakning yirtig‘iga o‘xshagan og‘iz, sap-sariq ikki tish, o‘sha tun ko‘rinib ketgan edi.

در نگاه کنیزک، آن شب، این تصویر نقش بسته بود: قبای سفید، سری براق، ابروهایی مانند طناب پشمی، ریشی مانند “یکسه، دهانی مانند شکاف پوست خشک‌شده، و دو دندان زرد مانند زعفران

A. Qahhor bu satirik o‘xshatishda boyning qoshini jun arqonga, soqolini to‘rvaga, og‘zini po‘stakning yirtig‘iga o‘xshatib, uni satira tig‘iga olgan. Umuman, kinoyali va satiric o‘xshatishlarda avtorning salbiy munosabati aks etadi.

Chog‘ishtiruv o‘xshatishlarida o‘xshatiluvchi obyekt bilan o‘xshovchi obrazlar birikma yoki gap holida kelib bir-biriga chog‘ishtiriladi. Bularda ko‘pincha -sa, -gan, -day affikslari va o‘xshamoq, barobar so‘zlari keladi:

Kishi qahri toshni yorganday, mehri temirni eritadi! (Shuhrat).

“خشم انسان سنگ را می‌شکند، مهربانی‌اش آهن را آب می‌کند”

Boshliqqa qarshi gapirish shamolga qarshi tupirish bilan barobar (J. Abdullaxonov) .

“مخالفت با رئیس مانند تف کردن در برابر باد است”

Chog‘ishtiruv o‘xshatishlarida o‘xshatiluvchi obyekt bilan o‘xshovchi obrazlar bir-biriga gap holida qiyoslanishi mumkin:

Dehqonlar aytishadiki, dedi Dadaboy qo‘shnisi Nazir xipcha belga, havo qanchalik dim bo‘lsa, ketidan shuncha qattiq yomg‘ir yog‘adi... Nemis ham shu jim o‘tirish bilan biron baloni boshlamoqchiga o‘xshaydi (F. Niyoziy);

کشاورزان می‌گویند، “دَدابای خطاب به همسایه‌اش نذیر لاغراندام گفت، “هرچقدر هوا گرم‌تر باشد، بعدش باران” “اَشَدیدتری می‌آید... آلمانی‌ها هم با این سکوتشان، انگار در حال مقدمه‌چینی برای یک فاجعه هستند

O‘xshatishlar komponentlariga ko‘ra to‘liq, to‘liqsiz, vositasiz, soda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket turlarga bo‘linadi.

To‘liq o‘xshatishlarda o‘xshatiluvchi obyekt, o‘xshovchi obraz va o‘xshatma belgi leksik birliklar bilan keladi: ...Bilishimcha, talanti shiradan tozalangan Rahimjon hozir shalog‘i chiqqan aravaday Murodxo‘ja domlaning tomorqasida ag‘anab yotibdi (A. Qahhor).

«تا جایی که من می‌دانم، رحیمجان که استعدادش مانند شیرهای تصفیه‌شده بود، اکنون مانند گاری که از کار افتاده باشد،
”!در حیاط مولودخوجه داملا دراز کشیده است“

To‘liqsiz o‘xshatishlarda o‘xshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalanmaydi. Bunda o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz mavjud bo‘lib, o‘xshatma belgini anglatgan ma‘no o‘xshovchi obrazga ko‘chadi:

Saidiy Muxtorxonni to‘y xaftasi Salimxonning uyida ko‘rib hayron qoldi. Buning nimasi bor, bir bedavo-ku! Qangshari past, ikki ko‘zi loyga tushgan munchoqday. Bet suyaklari chiqqan. Quloqlari yelpig‘ichday (A. Qahhor).

سعیدی وقتی مختارخان را در خانه سلیمخان دید، شگفت‌زده شد. این دیگر چیست؟ فقط یک بیمار لاعلاج! بینی‌اش“
”!تخت، دو چشمش مانند مهرهای که در گل فرو رفته، استخوان‌های گونه‌اش بیرون‌زده، گوش‌هایش مانند بادبزن

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘xshatishda leksik birliklar bilan qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning belgilari muhim rol o‘ynaydi. Demak, o‘xshatishda uch asos e‘tiborga olinadi: birinchisi, o‘xshatilayotgan predmet yo o‘xshatiluvchi obyekt, ikkinchisi, o‘xshayotgan predmet, uchinchi, o‘xshatilayotgan va o‘xshayotgan predmet.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘xshatishda ikki leksik birlik ma‘lum bir belgilari bilan bir-biriga qiyoslanadi. Bularda predmet ma‘nosini ifodalagan so‘zlar doimo to‘g‘ri ma’noda qo‘llanadi va belgining bor yoki yo‘qligiga qarab ular uch komponentdan yoki ikki komponentdan tarkib topadi. Bundan ko‘rinib turibdiki badiiy asarlar tilining tasviriy vositalardan biri bo‘lgan o‘xshatishning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish – badiiy adabiyot tilining emotsional-eskpressivlik, badiiy obrazlilik kabi masalalarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эфимов А. Стилистика художественной речи. - М, 1961. – 503 с.
2. Мукаббиров М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 89 Б.
3. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М, 1959. – 317 с.